

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQI

O'quv-uslubiy boshqarma

№ 289

«01» 07 2024y.

MOLIYA



FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI

(SILLABUS)

(sirtqi, ikkinchi ta'lim uchun)

- Bilim sohalari:** 300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
- Ta'lim sohalari:** 310 000 - Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
- Ta'lim yo'nalishlari:** 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Namangan – 2024 yil

Fan/modul' kodini Mol16(7)08	O'quv yili 2024-2025	Semestr 6, 7	Kreditlar 4, 4
Fan/modul' turi Majburiy	Ta'lim turi O'zbek		Haftadagi dars soatlari 5, 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Moliya 6-semestr (8m/12a) 7-semestr (8m/8a)	6-semestr 100 7-semestr 104	6-semestr 120 7-semestr 120

2. I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda moliya, moliyaviy siyosat, moliyaviy munosabatlar, moliyaviy boshqaruv, moliya nazariyalari, moliyaviy infratuzilma, moliyaviy yangiliklar, pul oqimlari harakati, pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili, moliyaviy hisobotlar, davlat va nodavlat moliyaviy muassasalarning moliyaviy faoliyati, moliyaviy risklar, kichik biznes moliyasi, startaplarni moliyalashtirish, sug'urta, xalqaro moliya munosabatlari va boshqa shu kabi moliyaviy tushunchalar bo'yicha yo'nalishga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish hisoblanadi.

Fanning vazifasi - talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, moliyaviy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish orqali fanning inson hayotidagi va jamiyatdagi o'rnini hamda ahamiyatini ochib berish.

Yuqoridagi maqsad va vazifalar "Moliya asoslari" fanining asosiy mazmunini belgilaydi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I-mavzu. Moliyaning mohiyati va funksiyalari*

Moliya va davlatning vujudga kelishi, uning resurslarga bo'lgan ehtiyojining rivojlanishi. Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli va moliya. Moliyaning moddiy mazmuni. Moliya iqtisodiy kategoriya sifatida. Tovar-pul, taqsimlash, qayta taqsimlash munosabatlari va moliya. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli, jamiyatning iqtisodiy tizimi, davlatning tabiati va funksiyalari bilan belgilanishi. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ifodalovchi ta'rif. Moliya va moliyaviy munosabatlarining xarakterli belgilari. Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Zamonaviy

iqtisodiyot va davlat moliyasi. Moliya va ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasi.

2-mavzu. Moliyaviy siyosat*

Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari. Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asoslanishi. Moliyaviy siyosatning moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy element hisoblanishi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyati ekanligi. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari.

3-mavzu. Moliyaviy tizim

Moliyaviy tizimning sohalari va bo'g'inlari. Moliyaviy tizimning ta'rif. Davlat moliyasi, mahalliy moliya, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi va ularning bo'g'inlari. Moliyaviy tizimning har bir sohasi va bo'g'inida shakllanuvchi pul fondlari hamda ularni daromad manbalari, ulardan foydalanishning o'ziga xos shakllari va metodlari. Moliyaviy tizim funksiyalari. Moliyaviy tizimni iqtisodiyotni boshqarishdagi roli.

4-mavzu. Moliyaviy boshqaruv mazmun-mohiyati*

Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati, ta'rif, maqsadi va vazifalari. Moliyaviy boshqaruvning boshqariladigan (ob'ektlar) va boshqaruvchi (sub'ektlar) tizimlar yagonaligidan iboratligi. Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik tamoyillari, usullari va shakllari.

5-mavzu. Moliyaviy boshqaruv organlari*

Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari. Moliya tizimini umumiy boshqarish va uni amalga oshiruvchi organlar.

6-mavzu. Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish

Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish. Moliyaviy rejalashtirishning ta'rif. Moliyaviy rejalashtirishning funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy rejalashtirish turlari. Moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy reja. Moliyaviy rejalashtirishning harakatlanish doirasi.

7-mavzu. Moliyaviy rejalashtirish asosiy vazifalari*

Moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari. Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari. Moliyaviy tartibga solish. Moliyaviy tartibga solishning huquqiy asoslari. Moliyaviy tartibga solishning korxon faoliyatiga ta'siri. Moliyaviy tartibga solish usullari.

8-mavzu. Moliyaviy nazorat mazmuni*

Moliyaviy nazorat: mazmuni, nazorat sohalari, ob'ekti, predmeti, tizimi, vazifalari, tamoyillari. Moliyaviy nazoratning yo'nalishlari va ularning o'zaro bog'liqligi. Moliyaviy nazorat tizimining elementlari. Moliyaviy nazoratni tashkil etishning tamoyillari. Moliyaviy nazoratning qamrab olish sohasi. Moliyaviy nazoratning predmetini ifodalovchi moliyaviy ko'rsatkichlar.

9-mavzu. Moliyaviy nazorat funktsiyalari*

Moliyaviy nazorat moliya funktsiyalarining amalga oshirilish shakli ekanligi. Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati, nodavlat moliyaviy nazorati. Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar.

10-mavzu. Davlat byudjeti

Davlat byudjetining mohiyati, funktsiyalari va ahamiyati. Davlat byudjetining vujudga kelish sabablari va rivojlanish tendentsiyalari. Davlat byudjetining iqtisodiy mazmuni. Davlat byudjeti – mamlakatning asosiy moliyaviy rejasini. Davlat byudjeti yordamida ifodalangan moliyaviy munosabatlar. Davlat byudjeti uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlar. "Davlat byudjeti" tushunchasiga terminologik jihatdan qo'shiladigan boshqa tushunchalar. Davlat byudjeti daromadlari. Davlat byudjeti harajatlari.

11-mavzu. Davlat maqsadli jamg'armalari mohiyati va ahamiyati

Davlat maqsadli jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Davlat maqsadli jamg'armalarining ta'rifi. Davlat maqsadli jamg'armalarining xususiyatlari. Davlat maqsadli jamg'armalarini tashkil etishning ob'ektiv zarurligi va shart-sharoitlari.

12-mavzu. Davlat maqsadli jamg'armalari vazifalari*

Davlat maqsadli jamg'armalarining vazifalari. Davlat maqsadli jamg'armalarini tashkil etishga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Davlat maqsadli jamg'armalarini tashkil etish tartibi va ularni shakllantirish metodlari.

13-mavzu. Davlat krediti

Davlat kreditining mazmun-mohiyati va funktsiyalari. Davlat kreditining sub'ektlar o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat ekanligi va unda davlatning qanday sifatlarda maydonga chiqishi. Davlat kreditida davlatning kafilga aylanishi. Davlat tomonidan kafolatning berilishi va markazlashtirilgan pul fondidagi o'zgarishlar. Kreditning bir turi sifatida davlat krediti klassik moliyaviy kategoriyalardan, xususan, soliqlardan farq qiluvchi o'ziga xos jihatlari.

14-mavzu. Sug'urta*

Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati. Sug'urta o'ziga xos pul munosabatlarining yig'indisi. Sug'urtaning iqtisodiy kategoriya sifatida asoslanish tamoyillari. Sug'urtaning funktsiyalari. Sug'urta shakllari. Tijoratga asoslanmagan sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlari. Tijorat sug'urtasi paydo bo'lishining bosqichlari.

15-mavzu. Uy xo'jaliklar moliyasi

Moliya munosabatlarining umumiy tizimida uy xo'jaliklari moliyasi. Uy xo'jaligining ta'rifi. Uy xo'jaligiga tegishli bo'lgan xarakterli xususiyatlar. Uy

xo'jaliklari moliyasining har bir davlat moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanishi va uning moliyaviy ahamiyati.

16-mavzu. Xalqaro moliya

Xalqaro moliya. Xalqaro moliyaning rivojlanish tendentsiyalari. Xalqaro moliya bilan bog'liq munosabatlar. Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhitining shakllanishiga ta'sir etgan sezilarli o'zgarishlar. Valyuta kursi va valyuta bozorlari. Valyuta kursining inflyatsiyani hisobga olishga ko'ra almashuv kurslari. Xorijiy investitsiyalar. Xorijiy investitsiyalar harakati. Islom moliyasi. Islom moliyasining nazariy asoslari. Islom moliyasining rivojlanish bosqichlari. Islomiy moliyaviy muassasalar. Islomiy moliyaviy xizmatlar. Islomiy moliyalashtirish. Islomiy va an'anaviy moliyalashtirish o'rtasidagi farq. Xalqaro islom moliya bozori. Islom moliyasi qonunchiligi. O'zbekistonda islomiy moliyani rivojlanishi.

17-mavzu. Moliyaviy nazariyalar*

Xorijiy iqtisodchilarning moliyaga oid nazariyalari. Siyosiy iqtisod klassiklari kontseptsiyalarining asosiy mazmuni va ularning moliyaviy jihatlari. Soliqqa tortishni maqsadga muvofiq ravishda tashkil qilishning A.Smit tomonidan ilgari surilgan to'rt asosiy tamoyillari va uni soliq kontseptsiyasining maqsadlari. J.S.Mill "Xizmatlarning soliq nazariyasi" ning asosiy g'oyasi. Yangi tarixiy maktab kontseptsiyalari. A.Vagner tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortish tamoyillari va ularning mazmuni. Moliyaviy muammolarning markschilar asarlarida talqini. Foydalilikning cheklanganligi nazariyasining moliyaviy jihatlari. J.M.Keyns moliyaviy kontseptsiyasining asosiy g'oyasi.

18-mavzu. Zamonaviy moliya mazmun-mohiyati*

Zamonaviy moliyaning mazmun-mohiyati. Zamonaviy moliyaning o'ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy nazariyaning kontseptsiyalari va modellari. Moliyaviy nazariya tayangan doktrina.

19-mavzu. Zamonaviy moliya o'rganishning ob'ektiv zarurligi va ahamiyati*

Zamonaviy moliyani o'rganishning ob'ektiv zarurligi, sabablari va axamiyati. Shaxsiy pul mablag'larini samarali boshqarish va moliya. Moliya va biznes olamida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish. Qiziqarli va foydali kareraga erishish va moliya. Moliya va mamlakatning iqtisodiy siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi ongli fuqarolik qarorlari qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lish. Tafakkurni kengaytirish va moliya.

20-mavzu. Zamonaviy (amaliy) moliyaviy qarorlar*

Moliyaviy qaror. Uning o'ziga xos xususiyatlari. Uy xo'jaliklari qabul qiladigan moliyaviy qarorlar va ularning asosiy tiplari: pul mablag'larini

iste'mol qilish va jang'arish to'g'risidagi qarorlar, investitsion qarorlar, moliyalashtirish xususidagi qarorlar, riskiy boshqaruv haqidagi qarorlar. Insoniy ehtiyojlar va moliya nazaryasiga muvofiq ularning moliyaviy qarorlar qabul qilishda aks etishi. Firmalar qabul qiladigan moliyaviy qarorlar qabul qiladigan moliyaviy qarorlarga ta'sir qiluvchi asosiy omillar. Jismoniy va moliyaviy kapital.

21-mavzu. Zamonaviy (amaliy) moliyaviy tizim*

Moliyaviy tizim funksiyalari. Iqtisodiy resurslarning vaqt bo'ylab, davlat chegarasi orqali va iqtisodiyotning bir tarmog'idan boshqasiga o'tish (joyini o'zgartirish) usulini ta'minlash. Riskni boshqarish (riskiy boshqaruv) usullarini ta'minlash. Savdoga imkon yaratadigan hisob-kitobni amalga oshirish va kliring usullarini ta'minlash.

22-mavzu. Zamonaviy (amaliy) moliyaviy yangiliklar

Moliyaviy yangiliklar va bozorning "ko'rinmas qo'lli". Moliyaviy yangiliklarning tadbirkorlar va firmalarning harakatlari natijasida yuzaga kelishi. Innovatsiyalar va texnologiyalarning rivojlanishi.

"Moliya" fanidan ma'ruza mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
6-semestr uchun		
1	Moliyaviy tizim	2
2	Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish	2
3	Davlat byudjeti	2
4	Davlat maqsadli jamg'armalari mohiyati va ahamiyati	2
	JAMI	8
7-semestr uchun		
1	Davlat krediti	2
2	Uy xo'jaliklar moliyasi	2
3	Xalqaro moliya	2
4	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy yangiliklar	2
	JAMI	8
	HAMMASI	16

Izoh: Yuqorida yulduzcha () bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.*

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarning maqsadimi aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Amaliy mashg'ulotlar uchun qo'yidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Moliyaning mohiyati va funksiyalari*
2. Moliyaviy siyosat*
3. Moliyaviy tizim
4. Moliyaviy boshqaruv mazmun-mohiyati*
5. Moliyaviy boshqaruv organlari*
6. Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish
7. Moliyaviy rejalashtirish asosiy vazifalari*
8. Moliyaviy nazorat mazmuni*
9. Moliyaviy nazorat funksiyalari*
10. Davlat byudjeti
11. Davlat maqsadli jamg'armalari mohiyati va ahamiyati
12. Davlat maqsadli jamg'armalari vazifalari*
13. Davlat krediti
14. Sug'urta*
15. Uy xo'jaliklar moliyasi
16. Xalqaro moliya.
17. Moliyaviy nazariyalar*
18. Zamonaviy moliya o'rganishning obyektiv zarurligi va ahamiyati*
19. Zamonaviy (amaliy) moliyaviy qarorlar*
20. Zamonaviy (amaliy) moliyaviy tizim*
21. Zamonaviy (amaliy) moliyaviy yangiliklar
22. Moliyaviy bozorlar va stavkalari*
23. Zamonaviy (amaliy) moliya va risklar*

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jibozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalardan qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

“Moliya” fanidan amaliy mashg’ulotlarning mavzular va soatlar bo’yicha taqsimlanishi:

No	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
6-semestr uchun		
1	Moliyaviy siyosat	2
2	Moliyaviy tizim	2
3	Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish	2
4	Moliyaviy nazorat mazmuni	2
5	Davlat byudjeti	2
6	Davlat maqsadli jamg’armalari mohiyati va ahamiyati	2
	JAMI	12
7-semestr uchun		
1	Davlat krediti	2
2	Uy xo’jaliklar moliyasi	2
3	Xalqaro moliya	2
4	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy yangiliklar	2
	JAMI	8
	HAMMASI	20

Izoh: Yuqorida yulduzcha (*) bilan belgilab qo’yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to’liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o’zlashtirilishi shart.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilgan mavzular:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyadan foydalanishning o’ziga xos xususiyatlari.
2. Ijtimoiy muammolarni hal etishda moliyaning roli.
3. Mustaqillik yillarida moliya haqidagi iqtisodiy ta’limotning rivojlanish xususiyatlari.
4. Monetar siyosat va uning davlat moliyasini samarali boshqarishdagi ahamiyati.
5. Moliyaviy menejment nazariyasi va amaliyotining hozirgi zamon muammolari.
6. Mustaqil moliyaviy nazorat (audit) tizimining zarurligi, ular taraqqiyotining hozirgi zamon muammolari.
7. Kichik biznes korxonalarini moliyasining xususiyatlari.
8. Qishloq xo’jaligi korxonalarini moliyasining hozirgi zamon muammolari.
9. Xolding kompaniyalarining moliyaviy xususiyatlari.
10. Jamoat tashkilotlari moliyasini tashkil etish va boshqarish.

11. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida korxonalar aylanma mablag’larini moliyalashtirish masalalari.

12. Tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijalari.

13. Foydani maksimalashtirishda moliyaviy boshqarish samaradorligining ahamiyati va roli.

14. Korxonalar moliyaviy strategiyasi.

15. Davlat moliyasini boshqarish institutsional tarkibining islohdagi g’aznachilik xizmati.

16. Byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish masalalari.

17. Davlat moliyasini samarali boshqarishda davlat kreditining roli.

18. Uy xo’jaligi moliyasini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishning ob’yektiv zarurati.

19. Moliya bozori va uning birlamchi va ikkilamchi bozorini tashkil etish muammolari.

20. Xalqaro moliyaviy munosabatlar.

21. Xalqaro moliyaviy munosabatlarda O’zbekiston Respublikasining o’rni.

22. Xalqaro moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishdan ko’zlangan maqsad.

Mustaqil o’zlashtiriladigan mavzular bo’yicha talabalar tomonidan loyha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Nazorat topshiriqlari uchun tavsiya etiladigan mavzular va ularni

bajarish uchun qo’yiladigan talablar

1. Monetar siyosat va uning davlat moliyasini samarali boshqarishdagi ahamiyati
2. Kichik biznes korxonalarini moliyasining xususiyatlari.
3. Davlat moliyasini boshqarish institutsional tarkibining islohdagi g’aznachilik xizmati.
4. Xalqaro moliyaviy munosabatlar.

Nazorat topshiriqlari talabalarga semestrmng boshlanish haftasida professor o’qituvchilar tomonidan taqdim etiladi va talabalar berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda yuqorida keltirib o’tilgan ko’rsatmalar asosida kafedra tomonidan tuzilgan komissiya a’zolariga (tasdiqlangan grafik bo’yicha) yakuniy nazorat topshirish kuniga qadar amalga oshiriladi.

Kurs ishini tashkil etish bo’yicha uslubiy ko’rsatmalar

Fan bo’yicha kurs ishlari o’quv rejada nazarda tutilmagan.

V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

Fanni o’zlashtirish natijasida talaba:

- turli mulkchilik shaklida iqtisodiyot sub’ektlarini to’g’ri boshqarishda ta’limning

<p>rolini, iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari (printsip)lari, iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalarini, fanlar tarkibida iqtisodiy tahlilning o'zini, iqtisodiy tahlil qilishning usullarini, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilishni, iqtisodiy tahlilda foydalaniadigan axborot manbalarini, kompleks iqtisodiy tahlilni mazmuni va asosiy tamoyillarini, xo'jalik faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilish usullarini, avtomatik boshqarish sistemasida kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil qilishni shakl va usullarini bilishi kerak;</p> <ul style="list-style-type: none"> • tahlil jarayonida kerak bo'ladigan manbalar hajmini aniqlash, to'plash, ularni to'g'riligini tekshirish, qayta ishlash va tahlilga moslashtirish, tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish, tahlil natijasiga xulosa va yakun yasash <p>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;</p> <p>ishlab chiqarishni iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari yakuniga baho berish, korxonaga iqtisodiy salohiyatini baholash, elektron hisoblash mashinalari (kompyuter vositalari)ning tahlil jarayonida qo'llash malakalariga ega bo'lishi kerak.</p>	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqola yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish; • jarayonli – yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turi darajadagi testlarni echish; • so'rov o'tkazish.
<p>4.</p>	<p>5.</p> <p>VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:</p> <p>Fandan talabalarini bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test nazoratini topshirish.</p> <p>Diqqat: Topshiriqlar va nazorat ishlari dedlayn (qat'iy belgilangan vaqt) tarzida shakllantiriladi va talabalar tomonidan bajarish muddatida platformaga</p>

joylashtiriladi. Muddat yakunlanganidan so'ng javoblar qabul qilinmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.

Talabalar bilimni baholash mezonlari

Moliya fanidan talabalarni baholashda, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarga qatnashishi va unda olgan baholarini inobatga olinadi.

1. Oraliq nazorati ma'ruza, amaliy mashg'ulotlaridagi mavzularni qamrab oladi. Talabaniq nazorat topshiriqlarini topshirish jarayonida to'plagan bali oraliq nazorat bali hisoblanadi.

$$OB=N.T(1,2,3)+A.M+MT(3tadan)/3$$

Bu yerda: OB- oraliq baholash; N.T- nazorat topshiriqlari;

A.M- amaliy mashg'ulotlar; MT- mustaqil ta'lim topshiriqlari.

Oraliq baholash bandlarining har biri kamida $60\%=3$ baho holatda o'zlashtirilishi lozim. Agar nazorat ishini yoki biror bandning o'zlashtirilishi 60% dan kam bo'lsa ya'ni 3 bahodan kam bo'lsa, o'zlashtirilmagan hisoblanadi va yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

$$OB \geq 60\% = 3 \text{ baho.}$$

Yakuniy nazorat tarkibi: auditoriya mavzularidan (50%) va mustaqil ta'lim mavzularidan (50%) yakuniy nazorat savollari tuziladi.

Yakuniy nazoratda kamida 60% ni o'zlashtirilishi shart. Agar $60\%=3$ dan kam bo'lsa yakuniy nazoratdan o'tmagan hisoblanadi.

$$YaN \geq 60\% = 3 \text{ baho.}$$

Fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha topshiriqlar 2-5 baho oraliqda baholanadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishdan o'rta 3,4,5 baho olgan talaba oraliq nazorat (ON)dan o'tgan hisoblanadi.

Yakuniy nazorat 2-5 baho oraliqda baholanadi. Yakuniy nazorat turi bo'yicha 3,4,5 baho olgan talaba famni o'zlashtirgan hisoblanadi. Aks holda qoniqsiz baho (2 baho) olgan talaba akademik qarzdor sifatida qayta topshirishga qoldiriladi.

Asosiy adabiyotlar

1. Бодил З., Мертон Р. Финансы. Учебник. Пер. с англ. - М.: "Вильямс", 2007.
2. Malikov T., Olimjonov O. Moliya. Darslik. - T.: "Iqtisod-moliya", 2019. - 920.

- b. 3. Malikov T. Moliya. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2018. - 274 b.
 4. Malikov T. Budjet-soliq siyosati. Darslik. – T.: "Iqtisod- moliya", 2019. - 404 b.
 5. Nurmuhamedova V. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod- moliya", 2018. - 576 b.
 6. Маркина Е.В. Финансы. Учебник. – М.: "КьюРус", 2020.
 7. Sultonov Sh., Chingulov Q., G'ofurova U., Safarova N. Biznes moliyasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 358 bet.
 8. Fozilchayev Sh., Xidirov N. Moliyaviy risklar nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. - 240 b.
- Qo'shimcha adabiyotlar**
1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2909-sonli Qarori.
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3151-sonli Qarori.
 3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
 4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-inizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 104 b.
 5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.
 6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 48 b.
 7. Bodi Z., Merton R.S., Cleeton D.L. Textbook. Financial economics. New Jersey: "Pearson Education", 2016. – 500 p.
 8. Malikov T.S., Jalilov Sh.K. Moliyaviy tizim. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2016. - 116 b.
 9. Mehmonov S., Karimova Z., Tursunov A. Budjet tizimi. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2018. – 544 b.
 10. Романовский М.В., Врублевская О.В. Финансы. Учебник. – М.: "Юрайт", 2013. - 599 с.
 11. Tashmuhamedova D. Budjet g'azna ijrosi. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. - 440 b.
 12. Хазанович Е., Юнусов Л., Юнусов И. Международные финансы. Учебник. – М.: "КьюРус", 2017. – 334 с.
 13. Шапкин А.С., Шапкин В.А. Экономические и финансовые риски. Оценка, управление, портфель инвестиций. Учебник. – М.: "Дашков и Ко", 2016. - 546 с.
 14. Elmirzaev S. Korporativ moliya. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod- moliya",

2015. - 272 b. 15. Abduraxmonov I. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. – 416 b. Axborot manbalari www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasining hukumat portali. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy sayti. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti. www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti. www.openbudget.uz - O'zbekiston Respublikasi "Ochiq byudjet" portali. www.president.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. www.scopus.com - xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasi.	
7.	Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	Fan/modul' uchun ma'sullar: E.S.Jurayev – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi, i.f.f.d., PhD.
9.	Taqrizchilar: I.Q.Sirojiddinov – NamMQI, "Iqtisodiyot" kafedrasi professori, i.f.n. R.A.Rashidov – NamMTI, "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, DSc., prof. v.b.